Tijorat banklari tomonidan eksporyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана	1116
Икромова Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA METODLARI



Uroqboyeva Farzuna Axmadjonovna
Toshkent Moliya Instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy e'tibor korxonalarining investitsiya jozibadorligiga ta'sir qiluvchi omillar tasnifiga qaratiladi hamda investitsiya jozibadorligini baholash metodlari ochib beriladi. Bundan kelib chiqadiki, har qanday korxonaga uchun investitsiya jozibadorligini baholash hamda uni samarali boshqarish imkoniyati asosiy vazifalardan hisoblanadi. Maqolada ushbu jihatlarni muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, investitsiya jozibadorligi, investitsiya jozibadorligini baholash, moliyaviy ko'rsatkichlar, fond bozori indekslari.

Abstract: This article focuses on the classification of factors affecting the investment attractiveness of enterprises, and methods of assessing investment attractiveness are revealed. It follows that assessment of investment attractiveness and the ability to effectively manage it are the main tasks for any enterprise. These aspects are discussed in the article.

Key words: Investment, investment attractiveness, assessment of investment attractiveness, financial indicators, stock market indices.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассмотрена классификация факторов, влияющих на инвестиционную привлекательность предприятий, а также раскрыты методы оценки инвестиционной привлекательности. Отсюда следует, что оценка инвестиционной привлекательности и возможность эффективного управления ею являются основными задачами любого предприятия. Эти аспекты рассмотрены в статье.

Ключевые слова: Инвестиции, инвестиционная привлекательность, оценка инвестиционной привлекательности, финансовые показатели, индексы фондового рынка.

KIRISH

Hozirgi kunda barcha korxonalar shiddatli raqobat sharoitida faoliyat yuritmoqda. Bunday sharoitda korxonaga tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezkor munosabatda bo'lishi, ish faoliyatini yaxshilashi, risklarni baholay olishi hamda eng to'g'ri moliyaviy qarorlarni qabul qilishi kerak. Doimiy rivojlanish potentsiali maqsadi daromad olish bo'lgan har qanday tashkilotning muvafaqqiyat kaliti hisoblanadi. Albatta, bu jarayon kompaniya iqtisodiy o'sishining mexanizmi hisoblangan investitsiyalarni talab qiladi. Korxonaga uchun kapital jalb qilish va bozordagi raqobatchilar orasida mavqeyini mustahkamlashning yagona yo'li investitsiya jozibadorligi darajasini oshirishdan iborat. Investitsiya jozibadorligini to'g'ri baholash ushbu iqtisodiy kategoriyani yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Investorning qaror qabul qilish jarayonidagi hal qiluvchi qadam korxonaning investitsion jozibadorligini baholashdir. U operatsion faollikni, bozordagi pozitsiyani va investitsiya jarayoni bilan bog'liq mumkin bo'lgan xavflarni tavsiflaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya jozibadorligiga ta'sir qiluvchi omillar va investitsiya jozibadorligini baholash yondashuvlari bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan hamda investitsiya va investitsiya jozibadorligi tushunchalariga turlicha ta'rif berishgan.

Blankning fikriga ko'ra, Investitsiya jozibadorligi – moliyaviy barqarorlik, rentabellik, aktivlarning likvidligi va aktivlar aylanmasi kabi moliyaviy ko'rsatkichlar asosida korxonaning investitsiya jozibadorligini tahlil qilish hisoblanadi ^[1].

Fayluk va Akalenko kabi tadqiqotchi olimlar investitsion jozibadorligi – bu mavjud vaziyatni, bozorlardagi vaziyatni, shuningdek, ko'rib chiqilayotgan investitsiya obyektining potentsial risklari va rentabelligini baho-



lashni belgilaydigan moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar to'plami. Shu bilan birga, investitsion jozibadorlik nafaqat moliyaviy-iqtisodiy hodisa, balki korxonaning haqiqiy miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini va uning sanoatdagi o'rnini ko'rsatadigan model ekanligini hisobga olish kerakligini aytib o'tishgan [2].

Investitsiya jozibadorligi darajasini baholash uchun biznesning miqdoriy va sifat xususiyatlarini o'z ichiga olishi kerak bo'lgan ko'rsatkichlar to'plamini ishlab chiqish va qo'llash kerakligi Aleksenko, Gress kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ularning fikriga ko'rsa, nazariy jihatdan, investitsiya jozibadorligi omillari odatda ikki toifaga bo'linadi: – ichki – bevosita ta'sir qiluvchi omillar (tashkiliy, texnologik, resurs-xom ashyo, mehnat, moliyaviy tahlil, ishlab chiqarish, iste'molchi). – tashqi – bilvosita ta'sir qiluvchi omillar (ular tabiiy-geografik, ekologik, huquqiy, siyosiy, qonunchilik, ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi) [3].

Mahalliy olimlardan professor B. Y. Xodiyev va professor Sh. Sh. Shodmonov investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berganlar: "Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir" [4]. Bunda asosiy e'tiborni ishlab chiqarishga qaratganlar ya'ni investitsiyalarni korxonalarining asosiy va aylanma kapitalini qayta tiklash va ko'paytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflar sifatida qaraganlar.


Yana bir yetakchi olimlarimizdan Sh. Mustafaqulov mamlakatning investitsion jozibadorligiga hududga sarmoyaning kirib kelishini belgilovchi va investitsiya faolligi bilan baholanadigan obyektiv iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy belgilar, vositalar, imkoniyatlar yig'indisi sifatida ta'rif bergan [5].

TAHLIL VA NATIJADAR

Kompaniyaning investitsion jozibadorligi – bu biznesning turli tomonlarini qamrab oluvchi va investorlar uchun foydani maksimal darajada oshirish imkoniyatini aniqlaydigan (mumkin bo'lgan investitsiyalarning boshqa obyektlari bilan solishtirganda) miqdoriy ko'rsatkichlar va sifat komponentlari to'plami bilan tavsiflangan faoliyat samaradorligini ko'rsatadigan iqtisodiy kategoriya. Bugungi kunda bir nechta yondashuvlar mavjud bo'lib, ularda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va turli tomonlardan korxonalarining investitsiya jozibadorligini tavsiflovchi ko'plab usullar ishlab chiqilgan.

Birinchi yondashuv moliyaviy koeffitsiyentlar orqali baholash.

Moliyaviy ko'rsatkichlar investorlar sarmoya kiritmoqchi bo'lgan kompaniyalar to'g'risida qaror qabul qilishlari uchun muhim hisoblanadi. Turli xil moliyaviy ko'rsatkichlar individual investorlar, institutsional investorlar va professional tahlilchilar tomonidan qo'llaniladi. Odatda, moliyaviy koeffitsiyentlar to'rt toifaga bo'linadi:



1-rasm: Moliyaviy ko'rsatkichlar tasnifi¹


Odatda, kompaniya haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lish uchun koeffitsiyentlar birgalikda qo'llaniladi. Muayyan koeffitsiyentdan bir nechta kompaniyalar uchun taqqoslash vositasi sifatida foydalanish kamroq xavfli yoki eng jozibadorligini aniqlashi mumkin. Bundan tashqari, o'tmishdagi natijalarni ko'rish uchun investor bugungi kundagi ma'lum ma'lumotlar uchun koeffitsiyentlarni xuddi shu koeffitsiyentlar olingan o'tgan yillardagi natijalar bilan solishtirishi mumkin. Investorlar koeffitsiyentlarni turli yo'llar bilan ishlatishlari mumkin. Umuman olganda, moliyaviy koeffitsiyentlar kompaniyani turli tomonlardan har tomonlama ko'rishni ta'minlaydi va investorlarga potentsial imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Rentabellik kompaniyaga investitsiya kiritishda tahlil qilinadigan asosiy jihatdir. Buning sababi shundaki, har doim ham yuqori daromadlar yuqori daromad yoki yuqori dividendlarni yuzaga keltiravermaydi. Rentabellik koeffitsiyentlari kompaniya qancha foyda keltirishi va bu foyda kompaniya haqidagi boshqa muhim ma'lumotlar bilan qanday bog'liqligi haqida tushuncha berish uchun ma'lum bir vaqtdagi ma'lumotlardan foydalanadi.

1 Muallif tomonidan tayyorlandi



Ushbu koeffitsiyentlar biznesning vaqt o'tishi bilan uning daromadlari, operatsion xarajatlari, aktivlari va aksiyadorlik kapitaliga nisbatan daromad olish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi.



2-rasm: Rentabellikning asosiy koeffitsiyentlari²

Sarmoyadorlar tomonidan rentabellikni tezkor tekshirish uchun foydalaniladigan yetakchi koeffitsiyentlardan biri sof foyda koeffitsiyentidir.

Sof foyda = Foyda/Daromad

Ushbu koeffitsiyent kompaniyaning foydasini uning daromadiga nisbati bilan aniqlanadi. Umuman olganda, kompaniyaning foyda marjasi qanchalik yuqori bo'lsa, shuncha yaxshi. 1 yoki 100% sof foyda marjasi kompaniya o'zining barcha daromadlarini sof daromadga aylantirayotganini anglatadi. Foyda marjasi darajasi turli sohalar va vaqt oralig'ida farq qiladi. Shunday qilib, kompaniyaning sof foyda marjasini sanoat va kompaniyaning tarixiy o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan ko'rib chiqish foydali bo'ladi. Sof foyda marjasi bilan siz diqqat qilishingiz kerak bo'lgan bir nechta qizil bayroqlar bo'lishi mumkin. Masalan, yil sayin kamayib borayotgan foyda marjasiga ega bo'lgan kompaniya bozor sharoitlarining o'zgarishi, raqobatning kuchayishi yoki xarajatlarning oshishi bilan shug'ullanishi mumkin. Daromad darajasi juda past bo'lgan kompaniya keng ko'lamli strategik tashabbuslar orqali xarajatlarni kamaytirishga e'tibor qaratishi mumkin. Sanoatga nisbatan yuqori rentabellik ko'lamli iqtisodlarda yoki, ehtimol, uzoq muddatda barqaror bo'lmasligi mumkin bo'lgan ba'zi buxgalteriya sxemalarida muhim ustunlikni ko'rsatishi mumkin.

Likvidlik koeffitsiyentlari

Likvidlik kompaniyaning qarzlarni qanchalik tez to'lashi bilan bog'liq. Bu kompaniya aktivlari xarajatlarni qanchalik qoplashini ko'rsatadi. Likvidlik koeffitsiyentlari investorlarga kompaniyaning operatsion samaradorligi haqida tasavvur beradi. Ular, shuningdek, kompaniya qo'shimcha aktivlarni sotib olish yoki kreditorlarni qaytarish uchun naqd pulni qanchalik tez va oson ishlab chiqarishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu ehtiyoj favqulodda vaziyatda yoki oddiy biznes jarayonida paydo bo'lishi mumkin. Asosiy likvidlik koeffitsiyentlaridan biri joriy likvidlik koeffitsiyenti hisoblanadi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti = Joriy aktivlar/Joriy majburiyatlar

Joriy aktivlar va joriy majburiyatlar kelgusi 12 oylik faoliyatni ifodalaganligi sababli, bu koeffitsiyent firmaning qisqa muddatli likvidligi haqida tushuncha berishi mumkin. Yuqori joriy likvidlik koeffitsiyenti ijobiy hisoblanadi, chunki u joriy aktivlar joriy majburiyatlarni necha marta qoplashini ko'rsatadi. Biroq juda yuqori bo'lsa, kompaniya o'zining ortiqcha naqd pulidan o'sish uchun foydalanmayotganligini ko'rsatishi mumkin.

2 Muallif tomonidan tayyorlandi



To'lov qobiliyati koeffitsiyentlari

To'lov qobiliyati koeffitsiyentlari, shuningdek, leverage koeffitsiyentlari sifatida ham tanilgan, investorlar tomonidan kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarini qanchalik yaxshi bajara olishini ko'rish uchun foydalaniladi. Korxonaga umumiy qarzini jami aktivlarga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyent, korxonaga umumiy qarzini korxonaga kapitaliga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyent, foizlarni qoplash koeffitsiyenti, sof daromadni jami majburiyatlarga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyentlar to'lov qobiliyatining asosiy koeffitsiyentlari hisoblanadi. Korxonaga umumiy qarzini jami aktivlarga nisbati va korxonaga kapitaliga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyentlar – bu kompaniyaning qarz darajasini tezkor tekshirish uchun tez-tez ishlatiladigan ikkita nisbat. Ular balansdagi aktivlar va o'z mablag'lari toifalariga nisbatan qarzlarning qanday to'planishini ko'rib chiqadilar. Ular investorlarga kompaniyaning moliyaviy ahvoli haqida tushuncha beradi, chunki u potentsial qarz yuki bilan bog'liq.

Jami qarzning jami aktivlarga nisbati kompaniyaning qancha qismi aksiyadorlik kapitali emas, balki qarz hisobidan moliyalashtirilishini aniqlash uchun ishlatiladi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Koeffitsiyent} = (\text{Qisqa muddatli qarzlar} + \text{Uzoq muddatli qarzlar}) / \text{Jami aktivlar}$$

Ushbu ko'rsatkich qancha kichik bo'lsa shuncha yaxshi, chunki bu kompaniya o'zining umumiy aktivlariga nisbatan kamroq qarzga ega ekanligini anglatadi. Aktivlar ulushi qanchalik ko'p bo'lsa, kompaniyaning to'lov qobiliyati shunchalik yaxshi bo'ladi. Kreditorlar odatda kompaniyaning aktivlari bo'yicha birinchi da'voga ega bo'ladilar, agar uni tugatish kerak bo'lsa. Qarzning aktivlarga nisbatan pastroq nisbati odatda kamroq xavfni ko'rsatadi.

Baholash koeffitsiyentlari

Baholash koeffitsiyentlaridan kompaniyaning investitsiya jozibadorligini tahlil qilish uchun foydalanish oson. Ushbu ko'rsatkichlar, birinchi navbatda, kompaniyaning ochiq aksiyalari narxini o'z ichiga oladi. Ular investorlarga qimmatli qog'ozlar bozoriga nisbatan qanchalik arzon yoki qimmat ekanligi haqida tushuncha berishi mumkin. Umuman olganda, koeffitsiyent darajasi qanchalik past bo'lsa, kompaniyaga investitsiyalar shunchalik jozibador bo'ladi. Ko'pincha, tahlilchilar nisbiy qiymat o'lchovi sifatida baholash koeffitsiyentining o'zaro nisbatini qabul qiladilar. Ommabop baholash koeffitsiyentlaridan biri aksiya narxining daromadlarga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyent hisoblanadi. U kompaniyaning aksiyalari narxini uning daromadlari bilan har bir aksiya bo'yicha taqqoslaydi. Bu investorlarga aksiyalarning o'sish potentsialini aniqlashga yordam beradi. Ushbu koeffitsiyent quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Koeffitsiyent} = \text{Har bir aksiyaning bozor qiymati} / \text{har bir aksiyadan keladigan daromad}$$

P/E koeffitsiyent qimmatli qog'ozlar kam baholangan yoki ortiqcha baholanganligini ko'rsatishi mumkin.

Moliyaviy koeffitsiyentlar kompaniyaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini tushunishning ajoyib usuli hisoblanadi. Koeffitsiyentlar kompaniya faoliyatining turli ko'rinishlarini taqdim etishi mumkin. Keng qamrovli ko'rinishga ega bo'lish uchun faqat bitta emas, balki turli koeffitsiyentlardan foydalanish yaxshidir. Ushbu koeffitsiyentlar, shuningdek, qo'shimcha tadqiqotlar natijasida olingan boshqa ma'lumotlar investorlarga sarmoya kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qaror qabul qilishda yordam beradi.

Ikkinchi yondashuv – qimmatli qog'ozlar indekslarini baholash

Ikkinchi yo'nalishning asosi – qimmatli qog'ozlar bozori indekslarining dinamikasi bo'lib, u kompaniyaning qimmatli qog'ozlariga bo'lgan talab va taklifni, ayirboshlash qiymati dinamikasini tahlil qilishni va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori indeksi qimmatli qog'ozlar portfeli qiymatining o'sishini o'lchash vositasidir. Ba'zida indeks shunchaki o'rtacha arifmetik ko'rsatkichdir, lekin odatda bu joriy indeks qiymati ba'zi bir bazaviy yil indeksi qiymatiga – asosiy bozor qiymatiga bo'lingan nisbatdir. Qimmatli qog'ozlar bozori dinamikasini tahlil qilish uchun bugungi kunda ishlatiladigan eng mashhur indekslar Dow Jones Industrial Index (DJIA), Standard & Poor's (S&P 500) indeksi hamda NASDAQ indeksleri hisoblanadi.

Indeksler nafaqat fond bozorini vaqt o'tishi bilan qanday o'sganligini ko'rish uchun ishlatilishi mumkin, balki u turli sektorlarni yoki hatto turli qimmatli qog'ozlarni bir biri bilan oson taqqoslash imkonini beradi. Indeksler orqali investitsiya kiritish uchun katta hajmdagi qimmatli qog'ozlarni o'rta va kichik hajmdagi aksiyalar bilan taqqoslash, aksiyalarni obligatsiyalar bilan taqqoslash mumkin. Indeksning yana bir afzalligi shundaki, ular o'rtasidagi korrelyatsiyani ko'rish oson. Investorlar riskni kamaytirish uchun bir-biri bilan o'zaro ijobiy va salbiy korrelyatsiga ega turli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish orqali kamaytirishlari mumkin. Shunday qilib, bir qimmatli qog'ozga kiritilgan investitsiya oshganda, ikkinchisi pasayadi va aksincha. Masalan, aksiyalar va obligatsiyalar o'rtasida salbiy korrelyatsiya mavjud.




Biroq O'zbekistondagi fond bozorining holati hali bunday tahlilni amalga oshirishga to'liq tayyor emas, shuning uchun uni biznesning investitsiya jozibadorligini baholash jarayonida qo'llash qiyin. Milliy indekslar tizimini yaratish va tahliliy ma'lumotlarni to'plash bo'yicha urinishlar investitsiya sohasida konsalting xizmatlariga ixtisoslashgan xususiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Uchinchi yondashuv – investitsiya jozibadorligini har tomonlama baholash

Bu usul investitsion jozibadorlikning har bir komponentini (boshqaruv, marketing, ishlab chiqarish va h.k.) tavsiflashga yordam beradi. Integratsiyalashgan yondashuv kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uchun yanada murakkab va ko'p qirrali, birinchi navbatda, u iqtisodiy hisob-kitoblar va ekspert xulosalarini o'z ichiga oladi, shuning uchun korxonani har tomonlama tavsiflaydi. Ammo bir nechta obyektlar o'rtasida tanlov qilishda ushbu yondashuvdan foydalanish yaxshiroqdir. Birinchi bosqichda keraksiz variantlarni istisno qilish yoki oddiygina investitsion jozibadorlik darajasi bo'yicha reyting qilish uchun oldingi ikkita yondashuvdan foydalanish ancha oson. Albatta, agar kompaniya keyingi rivojlanish uchun o'zining investitsion jozibadorlik darajasini baholasa, integratsiyalashgan variant eng mos keladi.

Demak, korxonani investitsiya jozibadorligini baholash quyidagi bosqichlardan iborat:



3-rasm: Korxonaning investitsiya jozibadorligi darajasini aniqlash bosqichlari³

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, korxonani investitsiyalarini baholashning yagona va to'liq ishonchli versiyasi mavjud emas. Usulni tanlash jarayonida ko'plab omillarni hisobga olish kerak, jumladan: maqsadlarni aniqlash, ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi, biz va hokazo. Biz turli ko'rsatkich tizimlari mavjudligini allaqachon bilib oldik, ulardan foydalanishimiz mumkin. Ushbu tizimlar kompaniyalarni baholash yondashuvlariga qarab o'zgaradi, lekin ular hali ham tashkilotni boshqalar bilan yoki standartlar bilan taqqoslaganda tavsiflaydigan umumiy investitsiya jozibadorligini yaratishi kerak. Baholashning har qanday yondashuvidan foydalanib, atrof-muhit omillarining bilvosita (iqtisodiyot, siyosiy vaziyat va boshqalar) va to'g'ridan-to'g'ri (bozor sharoitlari) kompaniyaga ta'sirini, uning investitsion jozibadorligini o'rganish, korxonani uchun imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash uchun ularni tahlil qilish kerak. Investitsion jozibadorlik darajasini aniqlash ham investorlar, ham korxonani uchun juda muhimdir. Ular kompaniyaning bozordagi mavqeyini, uning kuchli va zaif tomonlarini tushunishlari kerak, ular qanday qadamlar qo'yish kerakligiga ishonch hosil qilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бланк И. А. Основы инвестиционного менеджмента: В 2 т. – К., 2001.
2. Fyliuk, H., Akulenko, K. (2018). Methodological principles of evaluation of investment attractiveness of the enterprise. *Baltic Journal of Economic Studies*, 4(5), 387-395. <https://doi.org/10.30525/2256-0742/2018-4-5-387-395>
3. Aleksenko I.I., Gres M. S. Uzagalnennyya teoretiko-metodichnix pidxodiv do otsinki investitsiynoi privablivosti pidpriemstva// *Yekonomika i suspilstvo*. – 2017. Vipusk № 9. – S. 952-955. URL: http://www.economyandsociety.in.ua/journal/9_ukr/164.pd
4. B. Y. Xodiyev, Sh. Sh. Shodmonov. *Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik*. –2017-y. 454-b.
5. B. Y. Xodiyev, Sh. Sh. Shodmonov. *Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik*. –2017-y. 454-b.
6. Anatoliy Goncharuk The investment attractiveness evaluation: Methods and measurement features, Series: Polish Journal Of Management Studies, Vol. 7, 2013.

3 Anatoliy Goncharuk The investment attractiveness evaluation: Methods and measurement features, Series: POLISH JOURNAL OF MANAGEMENT STUDIES, Vol. 7, 2013.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

